

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.02.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

YUNUSOVA BAHORA AXTAMJONOVNA

O'ZBEK TILI TIZIMINING KOMBINATOR XUSUSIYATLARI

10.00.01 – O'zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

**Oglavlenie avtoreferata dissertatsii doktora filosofii (PhD)
po filologicheskim naukam**

Yunusova Bahora Axtamjonovna

O‘zbek tili tizimining kombinator xususiyatlari.....3

Юнусова Бахора Ахтамжоновна

Комбинаторные свойства системы узбекского языка..... 23

Yunusova Bahora Akhtamjonovna

Combinatorial properties of the uzbek language system..... 43

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ 48

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.02.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

YUNUSOVA BAHORA AXTAMJONOVNA

O'ZBEK TILI TIZIMINING KOMBINATOR XUSUSIYATLARI

10.00.01 – O'zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2021.2.PhD/Fil940 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya SHarof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifaning (www.fdu.uz) hamda «Ziyonet» axborot-ta’lim portali (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Urinbaeva Dilbar Bazarovna
filologiya fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Etakchi tashkilot:

Dissertatsiya himoyasi SHarof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.02.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «___» soat ___dagi majlisida bo‘lib o’tadi (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (8366) 239-11-40, 239-18-92; faks: (8366) 239-11-40; e-mail: rector@samdu.uz SHarof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Bosh bino, 105-xona).

Dissertatsiya bilan SHarof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (8366) 239-11-40, 239-18-92; faks: (8366) 239-11-40.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2023 yil «___» _____dagi ___raqamli reestr bayonnomasi).

M.Q.Muhiddinov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

D.B.Xursanov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
filologiya f.b.falsafa doktori (PhD)

D.B.Urinbaeva
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
filologiya fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsaфа doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida kompyuter lingvistikasi muammolarini o‘rganish XX asrning 40-yillarida boshlanib, bu sohada dastlabki ilmiy farazlar aytildi. Xususan, o‘tgan asrning 60-yillarida mazkur jarayon jadallahdi. Sun’iy intellektning avtomatik tarjima, kompyuter tahlili, tahriri, tezaurus, elektron lug‘at singari imkoniyatlari kengaydi, ilmiy-nazariy asoslari yaratildi, amaliyatda qo‘llash mumkin bo‘lgan ilk namunalari qo‘llanila boshladи. Fandagi bu yangilanishlar axborot texnologiyalarini tilshunoslikka tatbiq etish bilan bog‘liq istiqbolli ilmiy yo‘nalishlar paydo bo‘lishiga yo‘l ochdi. Bu esa kombinator lingvistika, uning shakllanishi, taraqqiyoti, bugungi holati va umumiy tamoyillarini o‘rganish zaruratini hamda mavzu dolzarbligini belgilab beradi.

Dunyo tilshunosligida XXI asrga kelib, kombinator lingvistikani ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganish harakati kuchaydi. Takomillashib borayotgan kompyuter lingvistikasi yo‘nalishida avtomatik tarjima sifatini yaxshilash, tilni lingvistik modellashtirish, har bir tilga oid so‘zlarni lemmalash nazariyasi, algoritmini yaratish hamda muayyan tilning ko‘p asrlik milliy-madaniy merosdan foydalanish imkonini oshirish maqsadida ularni elektronlashtirish jahon tilshunosligida dolzarb masalaga aylandi. Tilshunoslikda, xususan, kompyuter lingvistikasi sohasida kombinator lug‘atlarni yaratish, mavjud elektron lug‘atlar hajmini kengaytirish, matnni avtomatik qayta ishlaydigan dasturlarni ishlab chiqish kabilar yechimini kutayotgan muhim masalalardan biri bo‘lib turibdi.

Istiqlol yillarida kompyuter lingvistikasida avtomatik tarjima, sun’iy intellektning o‘zbek tilini tushunish va qayta ishlashiga erishish borasida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lsa ham, kombinator lingvistika yaxlit tarzda, monografik planda o‘rganilmagan. Binobarin, barcha ilmiy yo‘nalishlar qatorida tilshunoslikda ham «...ilmiy va ijodiy izlanishlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ular uchun zarur shart-sharoitlar yaratish vazifa»sining¹ belgilanishi fanlar integratsiyasi bo‘yicha chuqur izlanishlar olib borish zarurligini ko‘rsatadi. Mamlakatimizda tilga e’tibor ma’naviyatga e’tiborning ustuvor yo‘nalishlaridan biri darajasiga ko‘tarildi. Shu boisdan ona tilimizni asrab-avaylash, boyitish, undan amaliy foydalanish samaradorligini oshirish bilan birga, o‘zbek tilining zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimida keng qo‘llanishiga erishish kechiktirib bo‘lmaydigan, dolzarb vazifaga aylandi. Kombinator lingvistika istiqbolli ilmiy yo‘nalishi sifatida o‘zbek tili milliy kombinator lug‘atlarni yaratish, lug‘at tuzishning lingvistik asoslarini ishlab chiqish, lingvistik modellarni tuzish singari masalalarni zamonaviy ilmiy tamoyillar asosida tadqiq etish fanimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi «Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida»gi PF-4997-son, 2017-yil 7-fevraldagи «O‘zbekiston

¹Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз.

Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишлиланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016. – Б.13.

Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947сон Farmonlari, 2017-yil 17-fevraldag'i «Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2789-son Qarori, 2017-yil 13-sentyabrdagi «Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida»gi PQ-3271-sonli Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida kombinator tilshunoslik o'tgan asrning 60-yillarida o'rganish ob'ektiga aylangan. Bu borada rus, ingliz tilshunosligida talaygina izlanishlar olib borilgan va bu sohaga qiziqish sezilarli darajada kuchaydi. Jumladan, muvofiqlashtirish nazariyasi va valentlik (L.V.**Shcherba**, I.I.**Meshchaninov**, S.I.Karsevskiy, S.D.Katsnelson, Y.D.Apresyan, I.M.Boguslavskiy, M.V.Vsevolodova, P.N.Denisov, N.Z.Kotelova, V.V.Morkovkin, I.I.Ubin, D.N.Shmelyov va boshqalar); umumiy sintagmatika (O.S.Axmanova, S.G.Ter-Minasova); sintaktik sintagmatika (G.A.Zolotova, N.Y.Shvedova); semantik sintagmatika (V.G.Gak, Y.D.Apresyan); leksik sintagmatika (I.A.Melchuk, A.K.Jolkovskiy); frazeologiya nazariyalari (M.M.Kopsheiko, Z.D.Popova) xususida amalga oshirilgan monografik tadqiqotlar bu jihatdan xarakterlidir.

O'zbek tilshunosligida aynan bizning tadqiq ob'ektimiz bo'lган mavzuda maxsus kuzatish olib borilmagan bo'lsa-da, tovushlarning kombinator omillari, so'zlar o'rtasidagi sintagmatik xususiyatlar, frazemalarning birikuvi to'g'risida fikrlar bildirilgan ishlar mavjud.

O'zbek tilshunosligida kompyuter lingvistikasi, matnga leksikografik ishlov berish va lingvostatistik tahlil etish borasida birmuncha tadqiqotlar amalga oshirilgan. A.Po'latov, H.Orziqulov, S.Muhamedov, M.Ayimbetov, S.Muhamedova, S.Karimov, G.Jumanazarova, A.Babanarov, D.Urinbaeva, N.Abdurahmonova, A.Norov va boshqalarning kuzatishlarini ana shunday ishlar sifatida qayd etamiz². Bu tadqiqotlar matnni innovatsion yondashuv – kompyuter

² Мұхаммедов С.А. Статистический анализ лексико-морфологической структуры узбекских газетных текстов: Автореф. дисс... канд. фил. наук.- Ташкент, 1980; Бабанаров А. Разработка принципов построения словарного обеспечения турецко-русского машинного перевода: Автореф. дисс... канд. фил. наук. - Л., 1981; Айымбетов М.К. Опыт лингвостатистического анализа лексики и морфологии каракалпакского публицистического текста: Автореф. дисс... канд. фил. наук.- Ташкент, 1987; Каримов С., Каршиев А., Исройлова Г. Абдулла Қаҳҳор асарлари тилининг лугати. Алфавитли лугат. Частотали лугат. Терс лугат. - Тошкент, 2007; Ризаев С. Ўзбек тилининг лингвостатистик тадқиқи: Фил.фан.док.дис...автореф. - Тошкент, 2008; Мұхаммедова С. Ҳаракат феъллари асосида компьютер дастурлари учун лингвистик таъмин яратиш. Методик кўлланма. - Тошкент, 2006; Ўринбоева Д.Б. Ўзбек фольклори матнларининг лингвостатистик тадқиқи. - Тошкент: Фан, 2010; Жуманазарова Г.У. Фозил Йўлдош ўғли достонлари тилининг

lingvistikasi yutuqlari yordamida leksikografik va lingvostatistik tadqiq etishning zamonaviy usullarini tavsiya etganligi bilan dolzarblik kasb etgan bo'lsa-da, ularning hech birida o'zbek tili kombinator lug'atlarini yaratish masalasi kun tartibiga qo'yilgan emas. Ammo ular milliy tilimiz kompyuter tilshunosligi yo'nalishini yaratish yo'lida qo'yilgan tamal toshlari bo'lganligini ta'kidlash joiz.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti «O'zbek tili birliklarining funksional-pragmatik va semantik-uslubiy tahlili (sinxron va diaxron aspekt)» mavzusidagi ilmiy tadqiqot rejasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi. Tadqiqotda tilning kombinator xususiyatlari, ijtimoiy, leksikologik, ta'limiy va boshqa sohalardagi ahamiyati, kombinator lingvistika tarixi, kombinator lug'atning lingvistik qimmatini o'rganish, o'zbek tilining kombinator lug'atini yaratishning lingvistik asoslarini ishlab chiqish maqsad etib belgilangan.

Tadqiqotning vazifalari:

Bu maqsadga erishish uchun tadqiqot oldiga quyidagi vazifalar qo'yildi:

- tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlaridan biri - kombinator lingvistikaning shakllanishi va rivojining nazariy-metodologik asoslarini aniqlash hamda ishlab chiqish;
- til va nutq tizimida so'zning muvofiqlashtirish funksiyasini o'rganish va ko'rib chiqish;
- til sathlarida kombinator xususiyatlarning mushtarak va farqli jihatlarini yoritish;
- kombinator tilshunoslik terminologik bazasini shakllantirish;
- kombinator lingvistika, uning shakllanishi, taraqqiyoti, kombinator lingvistikaning bugungi holati va kombinator lug'at tuzishning umumiy tamoyillarini o'rganish;
- kombinator lug'at tuzishning lingvistik asoslarini tadqiq etish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida til va nutqning sintagmatik (kombinator) xususiyati tanlangan.

Tadqiqotning predmetini Ulug'bek Hamdamning «Muvozanat» asarining kombinator lug'ati tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, qiyoslash, induktiv va deduktiv, statistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'zbek tilshunosligida ilk bor tilning kombinator xususiyatlarining nazariy asoslari ishlab chiqilgan, so'zlarning sintagmatik vazifalari ochib berilgan;

kombinator tilshunoslikning bugungi holati, zamonaviy rus, ingliz, turk tilshunosligida jahon kombinator lug'atlarning o'rni, ularning mushtarakligi

лингвопоэтикаси: Фил. фан. док. дис...автореф. - Тошкент, 2017; Абдурахмонова Н.З. Инглизча матнларни ўзбек тилига килиш дастурининг лингвистик таъминоти (Содда гаплар мисолида). Филол.фан.бўйича фалсафа доктори (PhD)...дис. афтореф. – Тошкент, 2018; Пўлатов А. Компьютер лингвистикаси. – Тошкент: Akademnashr, 2011; Норов А. Компьютер лингвистикаси асослари. – Қарши, 2017. – 136 б.

umumiyligi talablari darajasidagi, farqli tomonlari esa so‘z miqdori va lingvistik tahlil imkoniyatida ekanligi aniqlangan;

til va nutqda so‘zlarning kombinator xususiyatlarining o‘xshash hamda farqli jihatlari ochib berilgan;

kombinator lug‘at tuzish tamoyillari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi o‘rganilgan materiallarning o‘zbek tili tabiatidan kelib chiqqan holda xulosalar qilishga yordam bergenligi, ularning asosli ekanligi, metodologik mukammalligi, kombinator lug‘at tuzish tamoyillarini yaratishda amalda isbotlangan manbalarga tayanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot o‘zbek tilining kombinator xususiyatlarining nazariy asoslarini ishlab chiqishda, kompyuter lingvistikasi yo‘nalishida tadqiqotlar yaratishda ilmiy-nazariy manba sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati amaliy filologiya bo‘limlaridan biri – kombinator lingvistikaning fan sifatida o‘qitilish jarayonida dastur, rejalar tuzish hamda mavzularni bayon etishda manba vazifasini o‘tashi, o‘zbek tilida turli tipdagi lug‘atlarini yaratishda namuna bo‘la olishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

o‘zbek tilning kombinator xususiyatlarininining mushtarak va farqli jihatlarini ochib berishda, folklor asarlari tilining taraqqiyot silsilasida so‘zlarning nafaqat semantik va grammatik, balki funksional-stilistik, kombinator imkoniyatlariga oid xulosalar O‘zRFA QQB Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan 2017-2020-yillar bajarilgan FA-F1-1005 raqamli «Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish» mavzusidagi fundamental loyiada foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limining 2022-yil 7-fevraldaggi №17.01/238 ma’lumotnomasi)da foydalanilgan. Tadqiqot natijalarini amaliy qo‘llash fundamental loyiha doirasida tayyorlangan ilmiy maqolalar hamda monografiyalarning badiiy matn va nutq haqidagi olib borilgan tadqiqotlar ilmiy saviyasini oshirishga xizmat qilgan xizmat qilgan;

dissertatsiya natijalaridan tilning kombinator xususiyatlari, ijtimoiy, leksikologik, ta’limiy va boshqa sohalardagi ahamiyati, kombinator lingvistika tarixi, kombinator lug‘atning lingvistik qimmatini o‘rganish, o‘zbek tilining kombinator lug‘atini yaratishning lingvistik asoslarini ishlab chiqishga oid xulosalaridan O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filialida 2014-2020-yillarda bajarilgan F3-20160908165532 raqamli “Qoraqalpoq tilining yangi alfaviti va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi” mavzusidagi fundamental loyiada foydalanildi;

o‘zbek tili tizimining kombinator xususiyatlariga oid mulohazalaridan Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining “Assalom Samarqand”, ”Ta’lim va taraqqiyot” kabi o‘quv-ma’rifiy hamda ilmiy-ommaviy teleko‘rsatuvlarida (2022-yil fevral-mart-aprel-may oylarida) berilgan mazkur ilmiy xulosalar tinglovchilarga tilshunoslikning zamонавиyo‘nalishlaridan biri – kombinator lingvistikaning shakllanishi, asoslarini aniqlash va ishlab chiqish, tilning kombinator xususiyatlari,

ijtimoiy, leksikologik, ta’limiy va boshqa sohalardagi ahamiyati, kombinator lingvistika tarixi, kombinator lugat turlari, uning lingvistik qimmatini o’rganish, o‘zbek tilining kombinator lug‘atini yaratishning lingvistik asoslarini ishlab chiqishlarida alohida ahamiyat kasb etishi haqida ma’lumot berildi. Natijada teletomoshabinlar ushbu masalalar yuzasidan ma’lumotga ega bo‘ldilar;

«Anagramma (So‘zni anagrammalarga ajratuvchi) dasturi»ga intellektual mulk agentligidan hammualliflik huquqi olingan. (Talabnoma kelib tushgan sana: 07.06.2022. Talabnoma raqami: DGU 2022 3433)

Tadqiqot natijalarning aprobatasiysi. Mazkur tadqiqot natijalari bo‘yicha 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruzalar qilingan.

Tadqiqot natijalarning e’lon qilinganligi. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni muallif tomonidan chop etilgan 1 ta lug‘at, 6 ta ilmiy maqola (ularning 5 tasi O‘zbekiston Respublikasi OAK tasarruf etgan ilmiy jurnallarda, 1 ta Impakt faktor bazasida indekslangan ilmiy jurnalda o‘z ifodasini topgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, umumiyl xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning umumiyl hajmi 147 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbliji va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob’ekt va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Kombinator tilshunoslikni yuzaga kelishining nazariy-metodologik asoslari**» deb nomlangan. Bobning «**Kombinator tilshunoslik fanining yuzaga kelish sabablari va taraqqiyot bosqichlari**» deb nomlangan birinchi bo‘limida kombinatorikaga oid dastlabki ma’lumotlar, kombinator tilshunoslikning paydo bo‘lishi, asoslari, kombinator (kombinatorial) fonologiya, kombinator morfologiya, kombinator morfemika va kombinator leksikologiya kabi bo‘limlari, bugungi kunda ushbu sohaning dolzarbliji, fan sifatida ona tili va xorijiy tillarni o‘rganishda, terminologiyasini ishlab chiqish hamda takomillashtirishda, lisoniy matnlarni ilmiy sharhlashda, mashina tarjimasida muhim ahamiyatga egaligi; mavjud hamda xayoliy narsalar (moddiylik va g‘oyaviylik)ning o‘zaro aloqadorligi muammolarini hal qilish, ijtimoiy ongni va ijtimoiy mavjudot bo‘lmish insonning o‘zini to‘g‘ri tushunish uchun nazariy xulosalar chiqarishga imkon berishi tahlil qilingan. Sintagmatik nazariya, valentlik, so‘zlarning bog‘lanish nazariyasi, muvofiqlik nazariyasi va strukturalizmning yo‘nalishlari tadqiq qilingan.

Kombinator tilshunoslik - tilshunoslikda til birlklari va ularning kombinatsiyalarining sintagmatik aloqalarini o‘rganadigan yo‘nalish. U ikki

sohaning birikuvidan yuzaga kelgan. Birinchidan, bu tilning tarkibiy qismi bo‘lgan sintagmatika - til birliklarini chiziqli munosabatini o‘rganuvchi, ikkinchidan, kombinatorika, til birliklarining «kombinatsiyasini» birikish va tarkib topish jarayonini o‘rganadi. Ularni amalga oshirish muayyan sharoit, ma’lum kommunikativ vazifalarga bo‘ysunadi va ma’lum miqdordagi so‘zlardan hosil bo‘lishi mumkinligini inobatga oladi. Kombinator tilshunoslikning maqsadi – til birliklarining sintagmatik munosabat bilan bog‘liqligi va kombinator xususiyatlari, semantikasining sintezi va til belgilarining bog‘lanishi, bog‘lanish tabiat, bog‘lanish vazifalari, shuningdek, nazariy tavsiflash va uning amaliy ahamiyati muammolarini yechishdir. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajaradi: kombinator tilshunoslikning mundarijasi va tuzilishini aniqlab olish; til tizimida kombinator tilshunoslik sohasining o‘rni va ahamiyatini belgilash; xorijiy va turkologiyada til birliklarining sintagmatik aloqalarini o‘rganish bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar bilan tanishish; kombinator tilshunoslik faniga oid tushuncha va qoidalar chegarasini aniqlash; kombinator tilshunoslikning til sohalariga tayangan holda bo‘limlarini aniqlash va tavsifini berish.

O‘zbek tilshunosligida, aynan til birliklarining kombinatsiyasini o‘rganish xususida fikr keltirilmagan bo‘lsa-da, ammo ayrim olimlarning qarashlaridagi fikrlar til birliklarida kombinatsiya mavjudligiga urg‘u bergen. Til tarixiga nazar tashlasak, til birliklariga har xil yondashuvlar bilan ajralib turadigan besh davrni keltirish mumkin. Bugungi kunga qadar kombinatorial tilshunoslik mavjud materialning parchalanishi va so‘zlearning kombinatorial-sintagmatik xususiyatlarini to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki bilvosita aks ettiruvchi ko‘plab atamalarning mavjudligi sababli nazariy tilshunoslikning alohida bo‘limi emas edi. Til va nutqning kombinatorial – sintagmatik tomonlarini tizimli tavsiflash zarurati uning ilmiy izlanishlar va nazariy taqdimotiga bo‘lgan talabdan kelib chiqadi, uning mohiyatida nutqiy faoliyatning kommunikativ-kognitiv yo‘nalishi yotadi. Mavjud faktik materiallar kombinatorial muammolar bo‘yicha izlanishlarni davom ettirishga yordam beradi va olingan natijalarni tizimlashtirish hamda antroposentrik paradigma doirasida til birliklarining kombinatorial-sintagmatik qobiliyatini o‘rganish istiqbollari tilshunosning maxsus yo‘nalishi-kombinator tilshunoslikning shakllanishi va yanada rivojlanishiga turtki bo‘ldi.

Birinchi bobning **«Kombinator tilshunoslikning tushunchalarning bazaviy tizimi»** deb nomlangan ikkinchi bo‘limida kombinator tilshunoslik faniga F. de Sossyur, Z.Xarris, Dj.R.Fyors, L.Yelmslev, L.Tener, N.Xomskiy, Y.D.Apresyan, V.G.Gak, A.K.Jolkovskiy, I.A.Melchuk, A.A.Ufimseva kabi xorijiy va rus tilshunos olimlarning asarlari ilmiy-nazariy va metodologik jihatdan asos bo‘lganligi ta’kidlangan. Kombinator tilshunoslik bir yo‘nalishdagi fan emas, balki ko‘p tarmoqli fandir.

Kombinator tilshunoslikning bazaviy tushunchalari orasida *sintagmatika*, *kombinatorika*, *valentlik*, *pozitsiya*, *bog‘lanish*, *distributsiya*, *kontekst*, *kollokatsiya*, *kolligatsiya* va boshqalarni ko‘rish mumkin. **Pozitsiya** – munosabat logikasiga asoslangan tilshunoslikda har qanday gapning mazmuniy va grammatick asosi kesim hisoblanadi. Ana shu ikkinchi nazariya bo‘yicha gap tarkibidadagi har

qanday bo‘lak o‘z ichida mayda bo‘laklardan tashkil topishi mumkin bo‘lgan butunlik bo‘lishi mumkin. Gap bo‘laklari muayyan sintaktik pozitsiyada bo‘lib, tayanch nuqta hisoblanuvchi kesimga (predikatga) bog‘lanadi. Ular kesimning «bo‘sh o‘rinlari»ni to‘ldirib, unga nisbatan ma’lum vaziyat (pozitsiya)da keladi. Kesimning «bo‘sh o‘rin»larini to‘ldirib, ma’lum sintaktik vaziyatda keluvchi ega, hol, to‘ldiruvchi pozitsiyasidagi sintaktik birliklari moddiy jihatdan bir morfologik shakl yoki bir necha morfologik shakllardan tashkil topadi.

Distributsiya (lot. distributio—ajratish, tarqatish). Biror til birligining nutqda boshqa til birliklari qurshovida ishlatila olish o‘rinlari³. Distributsiya - bu ma’lum til birligi qo‘llanishi mumkin bo‘lgan va qo‘llanishi mumkin bo‘lмаган doiralar (kontekstlar) yig‘indisidir, ya’ni gap qismlarining bir-biriga nisbatan joylashishi asosida til birligining o‘rni, tartibi, birikishi kabi xususiyatlaridir. Til birliklarining distributsiyasi fonema uchun ma’lum fonemaning oldidan va ketidan keladigan fonemalardir, morfema uchun esa morfemadan oldin va keyin keladigan morfemalardir⁴.

Valentlik tushunchasi sof sintaktik tushuncha emas, balki semantik-grammatik tushunchadir. Boshqacha qilib aytganda, valentlik gap bo‘lagining xususiyati emas, balki so‘z turkumining, so‘zning xususiyatidir⁵. **Valentlik** so‘zning boshqa elementlar bilan sintaktik aloqaga kirisha olish imkoniyatidir⁶. Tilshunos olim R.Rasulov sintaktik aloqalar va valentlikni qiyosiy tahlil qilib shunday ta’kidlaydi: valentlik — ichki imkoniyat, potensiya, sintaktik aloqa esa uning voqe bo‘lishidir; valentlik - til hodisasi, sintaktik aloqa - nutq hodisasi; valentlik - mohiyat, sintaktik aloqa — hodisa; valentlik - umumiylilik, sintaktik aloqa - xususiylik; valentlik - sabab, sintaktik aloqa – natija. Darhaqiqat, valentlik va so‘z birikmasi o‘zaro mohiyat va hodisa munosabatidir.

Masalan, *yig‘lamoq, kulmoq, mushtlashmoq* singari leksemalarning mazmuniy mundarijasida *odam* leksemasi bilan bog‘lanish imkoniyati mavjud. O‘z navbatida *odam* leksemasining mazmuniy mundarijasida *yig‘lamoq, kulmoq, mushtlashmoq* leksemalari bilan mazmuniy moc keladigan (shu harakatlarni yuzaga chiqara olish) sema mavjud. Har ikki insoniy birlikda mavjud bo‘lgan o‘sma bir-biriga moc sema ularni o‘zaro mazmuniy va gramma tik munosabatga kirishuviga yo‘l ochadi. **Kollokatsiya** bu xarakterli va ko‘p uchraydigan so‘z bog‘lanishlari bo‘lib, bunda gramma tik bog‘lanish emas, semantik bog‘lanish inobatga olinadi. **Kolligatsiya** so‘zlarning bog‘lanishi va bog‘lanish kategoriyalari bo‘lib, morfologik-sintaktik bog‘lanish inobatga olinadi. Kolligatsiya so‘zlar o‘rtasida bog‘lanish va ularni sinflarga, kategoriyalarga bo‘linishida namoyon bo‘ladi.

Birinchi bobning uchinchi bo‘limi «**Sintagmatika kombinator lingvistikaning asosi**» deb nomlangan bo‘lib, bo‘limda til birliklarining

³Хожиев А. Тилшунослик терминларининг лугати. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2002. - Б.46.

⁴Усмонов С. Умумий тилшунослик. –Тошкент, 1972. Б.103; Расулов Р. Умумий тилшунослик. - Тошкент, 2010. – Б. 101.

⁵Кўчқортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. – Тошкент: Фан, 2010.–Б 71.

⁶Ҳакимов М. ва б. Тилшунослик назарияси ва амалиёти. – Тошкент, –Б.47.

kombinator-sintagmatik xususiyatlari alohida tahlil qilingan. *Sintagmatika* - til birliklarini nutq zanjiridagi unsurlar sifatida tekshirish aspekti⁷. Til yoki nutq birliklarining gorizontal chiziq (yoki qator)dagi munosabati sintagmatik munosabat deb ataladi. Bunday munosabat tilning asosiy funksiyasini – kommunikativ funksiyasini voqelantiruvchi asosiy omil sanaladi⁸. Zotan, til birliklarining sintagmatik munosabati zamirida nutq birligi – gap shakllanadi. Bu esa, o‘z navbatida, sintagmatik munosabat tilning aloqa vositasi vazifasini ta’minlovchi asosiy omil ekanligini ko‘rsatadi⁹. Sintagmatik munosabat *sintagma* tushunchasi bilan uzviy bog‘liq, zotan, sintagma – bu sintagmatik munosabatning mahsulini taqozo etuvchi struktur-semantik butunlikdir. Uni sintaksisning molekulasi, bazal struktur yacheykasi deb atash mumkin¹⁰. Sintagmatik munosabatni, odatda, so‘z birikmasi yoki gap tarkibidagi so‘zlarning o‘zaro aloqasi bilan bog‘lab talqin etishadi. To‘g‘ri, so‘zlarning birikma tarkibida bo‘lsa ham, gap tarkibida bo‘lsa ham o‘zaro bog‘lanishi sintagmatik munosabatni taqozo etadi. Biroq bu jarayonda sintagmatik munosabatning shakllanishi turkumlararo bog‘lanishda namoyon bo‘ladi. Boshqacha aytganda, ot, fe’l, sifat va h.k. turkumlarining shu turkumlarga xos o‘zaro munosabatga kirishuvi sintagmatik bog‘lanishni vujudga keltiradi¹¹. Masalan, *Bu ulkan ishning boshida Shohrux Mirzoning o‘zi turdi (P.Qodirov. Ona lochin vidosi)* gapida olmosh, sifat, ot va fe’l kabi turkumlarga xos so‘zlarning o‘zaro sintagmatik munosabatga kirishayotganini ko‘ramiz. Ammo shuni ham aytish kerakki, sintagmatik munosabatni faqat so‘zlar bog‘lanishida emas, balki til birliklarining barchasi misolida kuzatish mumkin¹². V.M.Solnsev to‘g‘ri ta’kidlaganidek, sintagmatik munosabat faqat sintaksisda emas, balki tilning barcha sathlari birliklari o‘zaro bog‘lanishida shakllanadi¹³. Buni morfema sathida fonemalarning, so‘z sathida morfemalarning o‘zaro bog‘lanishida ham ko‘ra olamiz. Shu bois Y.S.Stepanov har bir sath birliklarining distributiv aloqasini sintagmatika deb ataydi¹⁴. Masalan, *adolat* so‘zi sathida *a-d-o-l-a-t* tarzidagi fonemalar, *tinchlik* so‘zida *tin-ch-lik* holatidagi morfemalarning sintagmatik bog‘lanishini ko‘ramiz.

Kombinatorika sohasining terminologiyasining tadqiqi shuni ko‘rsatadiki, «sintaktik sintagmatika», «semantik sintagmatika», «leksik sintagmatika» terminlari turli bosqichni ko‘rsatadi va ular til birliklarining chiziqli munosabatida o‘zaro chambarchas bog‘liq. Sintagmatika ham lisoniy, ham nutqiy darajani qamrab oladi. Sintagmatika til bosqichida valentlik, nutq bosqichida bog‘lanish sifatida ko‘rinadi. Yuqorida sanab o‘tilganidek, bog‘lanish, kontekst, distributsiya, valentlik, sintagmatika kabi terminlar til birliklarining chiziqli munosabati yoki

⁷ Хожиев А. Тилшунослик терминларининг лугати. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2002. - Б.115.

⁸ Турниёзов Н., Турниёзова К., Хайруллаев Х. Структур синтаксис асослари. – Тошкент: Фан, 2009. – Б.60.

⁹ Сова Л.З. Аналитическая лингвистика. - Москва, 1970. - С. 97.

¹⁰ Шутова Е.И. Вопросы теории синтаксиса. - Москва, 1984. - С.51.

¹¹ Солнцев В.М. Язык как системно-структурное образование. - Москва, 1971. - С. 68.

¹² Турниёзов Н., Турниёзова К., Хайруллаев Х. Ўша асар. –Б.60.

¹³ Солнцев В.М. Ўша асар. – Б.68.

¹⁴ Степанов Ю.С. Основы общего языкознания. - Москва, 1975. - С. 227.

sintagmatikaning tushunchalari sifatida bir-birini to‘ldiradi. Ular bir-biri bilan bog‘liq holda bir strukturani tashkil qiladi.

Ishning «**Nutq oqimida birliklarning kombinator o‘zgarishi**» deb nomlangan ikkinchi bobida kombinator tilshunoslik til elementlarining o‘zaro bog‘lanishi, birikishini yorqin ifodalovchi soha sanaladi. Til birliklari o‘rtasidagi bog‘lanish, birikish qonun-qoidalarini mohiyati, qanday sodir bo‘lish jarayonini to‘liq anglashga ko‘mak berishi, til birliklarini tanlash va tahlili natijasida guruhlash mumkinligi izohlangan. «**Fonetik birliklarning kombinator xususiyati**» deb nomlangan birinchi bo‘limida fonetik birliklarning kombinator xususiyati fonologiyada yaqqol ko‘zga tashlanadi. Fonologiya XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshiga kelib, tilshunoslikning fonetika bobida alohida soha sifatida qarala boshlandi. Fonologyaning kelib chiqishi va taraqqiyotida mashhur olimlar I.A.Boduen de Kurtene, L.V.Shcherba, N.F.Yakovlev, P.K.Uslar, N.S.Trubetskoy, R.Yakobson va boshqalar katta xizmat qildilar. Turkiy tillar fonetika va fonologiyasini chuqur tadqiq qilishda V.V.Radlov, V.A.Bogoroditskiy, E.D.Polivanov, N.K.Dmitriev, S.E.Malov, o‘zbek tilshunosligida A.G‘ulomov, A.Shoabdurahmonov, A.Abduaazizov, M.Mirtojiev, H.Jamolxonov va boshqalarning tadqiqotlari katta ahamiyatga egadir. So‘zlashuv jarayonida tilning qonun-qoidalariga nomuvofiq tarzda ayrim tovushlarning bir-biriga ta’sir qilishi natijasida nutq tovushlarining o‘zgarishi **kombinator o‘zgarishlar** deyiladi.

Nutq oqimida fonemalarning kombinator xususiyatlari haqida fikr yuritar ekanmiz, mazkur ilmiy tadqiqot ishlariga tayanamiz. Ilmiy tadqiqot ishlarining deyarli barchasida tovushlar kombinatsiyasi haqida qisqacha to‘xtab ketilgan. Buning uchun biz, avvalo, fonema ottenkalari, fonetik jarayon va fonetik hodisalar xususida to‘xtalib o‘tishni lozim topdik. **Fonema ottenkalari** – fonemaning nutqdagi real ko‘rinishlari. Ular umumiyligning voqelanishida namoyon bo‘ladigan xususiylikdir¹⁵. Fonema ottenkalari tushunchasiga L.V.SHcherba asos solgan. **Fonetik jarayon** deganda nutq tovushlarining ketma-ket kelishi, ularning o‘zaro ta’siri, fonemalar zanjiri tushuniladi. Demak, nutq jarayonida tovushlarni ketma-ket keltirish yo‘li bilan turli xil ma’noli birliklarni hosil qilamiz. Masalan, *t-o-sh*, *b-o-sh*, *q-o-l*. So‘zlar tarkibidagi tovushlar alohida-alohida emas, balki uzlusiz talaffuz qilinadi, so‘zlar uzlusiz talaffuz qilinganda, uning tarkibidagi bir tovush hali to‘liq talaffuz qilinmay turib, nutq a’zolari ikkinchisiga tayyorlanib turadi. Natijada tovushlar zanjiri vujudga keladi. Tovushlar kombinatsiyasini kompyuter yordamida (<http://anagramma.uz>) tahlil qilish orqali quyidagilar aniqlandi: **Baquvvat** so‘zining 2 harfli kombinatsiyasidan 52 ta so‘zdan 9 tasi ma’no anglatadi (*ba*, *bu*, *au*, *qu*, *uq*, *va*, *tu*, *tv*, *uv*). 3 harfli 360 ta so‘zdan 17 tasi (*baa*, *but*, *btu*, *abu*, *aut*, *qat*, *quv*, *qut*, *uqa*, *uvv*, *vaa*, *vaq*, *vav*, *tab*, *taq*, *tuq*, *tub*, *tuv*), 4 harfli 2168 ta so‘zdan 12 tasi (*buqa*, *buva*, *baqa*, *buta*, *atab*, *quva*, *quvv*, *qutb*, *vaqt*, *vata*, *tabu*, *taqa*), 5 harfli 10848 ta so‘zdan 4 tasi (*vavaq*, *tavba*, *qavat*, *taqab*), 6 harfli 42048 ta so‘zdan 1 tasi (*quvvat*), 8 harfli 149760 ta so‘zdan 0 so‘z ma’no anglatadi, jami kombinatsiyalardan 205236 ta so‘z hosil qilindi va 43 tasi

¹⁵ Жамолхонов Х. Ўзбек тилининг назарий фонетикаси. – Тошкент: ФАН, 2009. – Б.18.

ma’no anglatadi. Kombinatsiyaga kirishgan tovushlardan hosil bo‘lgan so‘zlarning ham hammasi ma’no anglatavermaydi.

Nutq jarayonida talaffuz qulayligiga erishish harakati tufayli ketma-ket kelayotgan tovushlarning o‘zaro ta’siri natijasida o‘zgarishlarga uchrashi **fonetik hodisalar**dir. Fonetik hodisalar unlilarga ham, undoshlarga ham taalluqlidir. Bobda kombinator omillar ta’sirida sodir bo‘ladigan hodisalar, pozitsion omillar ta’sirida sodir bo‘ladigan hodisalarning turlari haqida batafsil ma’lumot berilgan.

Ikkinci bobning «**Leksik birliklarning kombinator xususiyati**» deb nomlangan ikkinchi bo‘limida tilning leksik qatlamini sintagmatik nuqtayi nazardan o‘rganishda tilning asosiy birligi, ma’noviy va kombinator xususiyatga ega, birliklarning chiziqli qatorida birkishida individual ma’nosida semantik ahamiyatga ega bo‘lgan, maxsus lisoniy birlik so‘z muhim rol o‘ynashi ta’kidlangan. Ma’lumki, tilda mavjud bo‘lgan so‘zlarning hammasi lug‘at tarkibi yoki leksika deb yuritiladi. Bunda tilning asosiy birligi bo‘lgan so‘z muammozi, lug‘at tarkibi qurilishi, lug‘aviy birliklarning qo‘llanilishi, boyishi, taraqqiyoti va boshqa aspektlari o‘rganiladi. So‘z hamda u bilan bog‘liq til va nutq hodisalarining yillar davomida o‘rganilgan bo‘lsa ham hozirgi kunda tilshunoslikda asosiy tadqiqot manbai hisoblanadi. Buning asosiy sababi esa so‘z va u bilan bog‘liq hodisalarning doimiy o‘zgarib, yangilanib turishi hamda jamiyatning muloqot vositasida so‘z, u bilan bog‘liq tushunchalarning asosiy o‘rinni egallashidadir. Shunday ekan, so‘z muammozi leksikologiyaning asosiy o‘rganish manbai sanaladi. Olimlar tomonidan bildirilayotgan so‘z va leksema o‘rtasidagi farq, o‘xhash jihatlar haqidagi fikrlarga tayangan holda mavzuni yoritishga harakat qilamiz. Leksemaning nutqdagi voqeligi so‘zdir. Leksema jamiyatning barcha azolari uchun tayyor, umumiyligi va majburiy sanalishi bilan bir qatorda yana bir qancha xususiyatlarga egadir: 1. Jamiyat a’zosi leksemani yasamaydi, uni tayyor holda qabul qiladi. 2. Jamiyat a’zosining ongida har bir leksema boshqa leksemalar bilan o‘xhashlik qatorlarida (paradigmalarda) yashaydi. Masalan: *[daftar] ~ [bloknot]; [daftar] ~ [oynoma] ~ [ro‘znama]; [daftar] ~ [qissa] ~ [roman]; [daftar] ~ [muqova] ~ [varaq] ~ [bet] ~ [bob]* kabi. *Daftar* so‘zi shu munosabatlar asosida turlicha ma’no beradi. 3. Leksemalar inson ongida qo‘sni chilik munosabatlarida (sintagmatik) ham yashaydi. Masalan: *[daftar] ~ [yoz] ~ [ol] ~ [sifatli] ~ [matematika] ~ [ona tili]; [daftar] ~ [son qo‘srimchalari] ~ [egalik qo‘srimchalari] ~ [kelishik qo‘srimchalari]*.... Bu o‘xhashlik va qo‘sni chilik munosabatlari, ma’no va vazifa imkoniyatlari nutqda oydinlashadi, aniqlashadi. Demak, leksemalar til egalari ongida voqelashgan va voqelashadigan nutqiy imkoniyatlar yig‘indisi hamdir¹⁶. So‘zning matn qurshovida qo‘llanilishi jarayonida leksik kombinatsiyaning 2 turi ko‘zga tashlanadi: *ichki kombinatsiya va tashqi kombinatsiya*. *Ichki kombinatsiya* – ma’no yaxlitligiga ega bo‘lgan, nutqiy jarayonga qadar ikki va undan ortiq so‘zlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi ko‘chma ma’noda hosil bo‘lib frazeologik va leksik birlik orqali yuzaga chiqadi. Bunda, asosan, *tasviriy ifoda*

¹⁶ Абузалова М., Назарова С. Систем тилшунослик асослари. – Бухоро, 2008. –Б.20.

(perifraza)lar, iboralar (frazeologizmlar), paremiologik birliklar (maqol va matallar), hikmatli so‘z (aforizmlar)larda yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Tashqi kombinatsiya – nutq jarayonida so‘zlarning to‘g‘ri ma’noda va to‘g‘ri ma’nosini anglatgan narsa-hodisalardan boshqa narsa-hodisalarga nom sifatida ko‘chirish asosida hosil bo‘lgan leksik birlik orqali yuzaga chiqadi. Bu so‘z birikmalari va metaforalarda yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Tadqiqotning «Frazeologik birliklarning kombinator xususiyatlari» deb nomlangan uchinchi bo‘limida frazeologik birliklarning tashqi sintagmatik aloqasini matn qurshovida o‘rganish (A.V.Kunin , T.Z.Cherdanseva), frazeologik birlik tarkibiy qismlarining o‘zaro bog‘liqligini aks ettiruvchi ichki sintagmatik aloqani tahlil qilish (N.F.Alefierenko , G.G.Sokolova va boshqalar) haqidagi fikrlar tilshunoslikka oid asarlarda ko‘zga tashlanadi. Ikkinci yondashuvda olib borilgan izlanishlarda frazeologik birliklarning semantik xususiyatlarini belgilovchi psixolingvistik jarayon sifatida sintagmatik munosabatlar yordamida frazeologizmning birliklari o‘zaro bog‘lanadilar va nutqiy tuzilma hosil qilish uchun o‘zaro birikadilar, deb ta’kidlanadi.

Frazeologik birliklar ham til sistemasida o‘zining ifoda imkoniyatlari bilan farqlanuvchi til birligi sifatida o‘rin tutadi. Frazeologizmlar garchi so‘z birikmalari, jummalarga yaqin tursa-da, ma’no xususiyatlari bilan lug‘aviy ma’noli birliklarga, leksemalarga o‘xshaydi, chunki frazeologik birliklar ham tilda umumiyl, imkoniyat sifatida turuvchi **emik birlik** sanaladi. L.I.Royzenzon frazeologiyazmlarni leksik emas, balki sintaksis frazeologik shakllanish uchun «qurilish ashyosi» sanaladi desa¹⁷, N.M.Shanskiy esa, konkret so‘z birikmalariga asoslanishini ta’kidlaydi. Tilshunos olim A.E.Mamatov esa, frazeologizmlar leksik sathdagi kombinatsiyalardan tashkil topadi, deb yozadi¹⁸.

Tilshunos U.Rashidova tadqiqotida *ko‘z* komponentli frazeologizmlar *ko‘rish idroki* nomli semantik guruhgaga mansub deb *ko‘rsatgan* hamda ularni o‘z navbatida 5 turga bo‘lgan¹⁹. Ushbu fikrga tayangan holda romandagi *ko‘z* komponentli frazeologizmlar asarda 115 marta qo‘llangan bo‘lib, ularni quyidagi semantik guruhgaga bo‘lib tahlil qildik:

- *jiddiy e’tibor* ma’nosini ifodalovchi frazeologizmlar: *ko‘zni olaytirmoq, ko‘z solmoq, ko‘zga ko‘rinmoq, ko‘zi tushdi;*
- *tez qaramoq* ma’nosini ifodalovchi frazeologizmlar: *ko‘zi tushmoq, ko‘z ochib yumguncha, ko‘z Yugurtirmaq, ko‘zdan o‘tkazmoq,;*
- *kimadir yoki nimagadir nigohni yo‘naltirish* ma’nosini ifodalovchi frazeologizmlar: *ko‘z tashlamoq, ko‘ziga tik qaramoq, ko‘z qirini tashlamoq, ko‘z solmoq;*

¹⁷ Розензон Л.И. Синтаксис и фразеология // Проблемы синтаксиса. Львов, 1963. – С.49.

¹⁸ Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологизмларнинг шаклланиши масалалари: Филол.фан.докт.дисс..автореф. –Тошкент, 2000. –Б. 37.

¹⁹ Рашидова У. Ўзбек тилидаги соматик ибораларнинг семантик-прагматик таҳлили (қўз, қўл ва юрак компонентли иборалар мисолида): филол.фан. бўйича фалсафа докт. (phd) диссер. – Самарқанд, 2018. – Б.22.


- *haydash* ma’nosini ifodalovchi frazeologizmlar: *ko ‘zdan yo ‘qotmoq, ko ‘zdan nari;*
- *kuzatmoq, qaramoq* ma’nolarini ifodalovchi frazeologizmlar: *ikki ko ‘z bilan, ko ‘zdan g ‘oyib bo ‘lmoq, ko ‘z olmaslik, ko ‘z uzmaslik;*
- *zarar-zahmat, musibat keltiruvchi qarash* ma’nosini ifodalovchi frazeologizmlar: *yomon ko ‘z, ko ‘z otmoq;*
- *uyquga ketmoq* ma’nosini ifodalovchi frazeologizmlar: *ko ‘zi ilinmoq, ko ‘ziga uyqu kelmoq, ko ‘ziga uyqu qo ‘ndirmayotgan;*
- *tolmoq* ma’nosini ifodalovchi frazeologizmlar: *ko ‘zdan qolmoq.*

Masalan, *Shunda «lop» etib xayoliga o ‘tgan yili yozda toshga bog ‘lab qiyaganlari — o ‘sha... sochlari patila-patila devonasifat yigit tushdi. «Ko ‘zlaringga suv to ‘lsin senlarning!!!» — qariyaning miyasida qarg ‘ish chaqnadi* (201). Misoldagi *ko ‘zlariga suv to ‘lmoq* frazeologizmi Sh.Rahmatullaev lug‘atida keltirilmagan. Asardagi *ko ‘zlariga suv to ‘lmoq* frazeologizmi ichki kombinatsiya hosil qilib «*o ‘lim tilamoq*» ma’nosida qo‘llangan. Bu frazeologizmda o‘g‘rilikda gumon qilinib, cho‘ponlar tomonidan qip-yalang‘och holda yo‘l yoqasidagi ulkan toshga chirmab tashlangan Amir uyat, xo‘rlik, kaltak azobidan ham ko‘ra tashnalikdan qattiq aziyat chekadi. Amirga suv berishmaganidan so‘ng uni shu ahvolga solganlarni qarg‘ashidagi «*Ko ‘zlaringga suv to ‘lsin senlarning!!!*» frazeologizmidagi *ko ‘z insonning ko‘zi bilan bog ‘liq bo‘lib, ko ‘zlariga suv to ‘lishi ya’ni «chukib o ‘lish»iga urg‘u bermoqda. Qahramon suvsiz qolganligini alamini boshqa yo‘l bilan emas, aynan suvgaga g‘arq bo‘lishini istayotganligi bilan olmoqchilagini ko‘rsatadi. Yana bir misol: Axir, o ‘n gulidan biri ochilib ochilmagan sho ‘rlik bolajonlarining ko ‘zlariga loyqa to ‘lguncha oshini oshab, yoshini yashab bo ‘lgan otaning joniga kelmaydimi o ‘sha qiron!* (200). U ozib-to ‘zgan, soqollari o ‘sgan, qomati ham yuzi yanglig ‘ so ‘lg ‘in, ayniqsa, *ko ‘zlaridan nur-ma ‘no qochgan edi* (151).

Misollardagi *ko ‘zlariga loyqa to ‘lguncha, ko ‘zlaridan nur-ma ‘no qochgan edi* frazeologizmlariga ham «*o ‘lim*» ma’nosini yuklatilgan. Bunday frazeologizmlar har qanday insonning tasavvuriga sig‘avermagani singari, uni bu qadar ixcham va siqiq ifodalashning uddasidan ham har qanday ijodkor chiqa olmaydi. Bu Ulug‘bek Hamdam poetik individualligi samarasini va bu jarayonda u frazeologizmlardan mohirona foydalana olgan, individual-muallif ibora yaratib, ifodaning yanada obrazli bo‘lishiga erishgan. Umuman olganda, *ko ‘z komponentli iboralarning paradigmatisk va sintagmatik shakllanish jarayoni murakkab bo‘lib, ularning mazkur xususiyatlari matnda, nutqiy vaziyatda yaqqolroq namoyon bo‘ldi.*

Dissertatsiyaning uchinchi bobi «**Kombinator leksikografiyaning nazariy asoslari**» deb nomlangan. Bobda dunyo tilshunosligi tajribasidan kelib chiqqan holda bugungi kunda o‘zbek tilining analogik, assotsiativ, mavzuviy, kombinator, korpus, kompyuter lug‘atlarini yaratish, tilimizda ishlatilayotgan barcha leksemalarning paradigmatisk, sintagmatik qatorlarini aniqlash, ma’noviy tarmoqlanishlarini belgilash, ularni kompyuter xotirasiga kiritish orqali o‘zbek tili milliy korpusi va lug‘at jamg‘armasining ulkan zahirasini texnik jihatdan qayd etish, ularning boshqa tillarga tarjima qilish dasturlarini yaratish kabi masalalar olimlarimiz oldida bosh masalalardan biri ekanligi ta’kidlangan. SHu sababli

xalqimizning iqtisodiy va ma’naviy hayotida sodir bo‘layotgan yangilanishlar, o‘zgarishlar, fan-texnikaning rivoji bizdan lug‘atlarning zamonaviy turlarini yaratishni talab qilmoqda. Bobning «**Kombinator lug‘atlar va ularning lug‘atchilik tizimida tutgan o‘rni**» nomli birinchi bo‘limida Prezidentimizning nutqlarida «O‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlari, shevalari, tarixiy taraqqiyoti, uning istiqboli bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlar samarasini oshirish, kadrlar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilashga erishmog‘imiz zarur. Bu ishlar uchun moliyaviy resurslar va mablag‘larni aslo ayamasligimiz kerak. ... ona tilimizni jozibali va qiziqarli tarzda taqdim etish, buning uchun o‘zbek tilining kompyuter dasturlarini, onlayn darsliklar, elektron lug‘atlarni yaratish kerak²⁰», degan dolzarb ijtimoiy vazifaning qo‘yilishi, qolaversa, turli tipdagi kompyuter dasturlarni yaratish talabi kombinator lug‘atiga bo‘lgan ehtiyojni yanada oshirayotganligi ta’kidlangan. Bu esa o‘zbek tilshunosligi fani oldiga jahon leksikografiyasini an’analariga asoslangan holda o‘zbek kombinator lug‘atchiligi nazariyasini shakllantirish, uning ilmiy – lingvistik, sotsiolingvistik, lingvokognitiv asoslarini ishlab chiqish, kombinator lug‘atlarini yaratish tamoyillarini aniqlashtirish, bugungi zamonaviy lingvistik va metodik talablarga javob beradigan kombinator lug‘atlarini yaratish talablarini qo‘ymoqda. Ma’lumki, kombinator lug‘atlarga doir aksariyat manbalarda antrotsenrik yondashuv asosida butun olam bir-biri bilan uzviy ravishda bog‘langan uchta yirik tushuncha - «*Jamiyat*», «*Inson*» va «*Kompyuter*» yoki «*Inson*», «*Kompyuter*» va «*Matn*»ga bo‘linadi. Ammo bunday bo‘linishda hali butun olamning asosini, yashovchanligini tashkil qiluvchi harakat, holat, miqdor va munosabatga etarlicha e’tibor qaratilmagan. SHunga ko‘ra, semantik shaklning yangicha talqinida mazkur kategoriyalarni «*Inson-Kompyuter-Matn*» uchburchagini quyidagicha keltirish mumkin:



Jahon tilshunosligida olimlarning lug‘atlari kombinator leksikografiyaning jiddiy yutug‘i sifatida e’tirof etilishga loyiqdir²¹.

²⁰Мирзиёев Ш.М. Миллий ўзлигимиз ва мустакил давлатчилигимиз тимсоли (Ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганлигининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқ) // «Халқ сўзи» газетаси. – Тошкент, 2019. – № 218.

²¹ А.К.Жольковский, И.А.Мелчук, З.М.Шалляпина (Экспериментальный фрагмент англо-русского толькового комбинаторного словаря в процессе перевода. Публ. Проблемной группы по экспериментальной и прикладной лингвистике. Вып. 16. – М.ИРЯ АНССР, 1971. 37 с.); Ю.Д.Апресян, И.А.Мелчук, З.М.Шалляпина

Izohli kombinator lug‘at - har qanday tilning to‘liq tavsifining ajralmas qismi bo‘lib, «mazmun - matn» tipidagi lingvistik modellar nazariyasi doirasida amalga oshiriladi. Tabiiy til yaratuvchi sifatida berilgan bir necha ma’noga mos keladigan tabiiy til matnlarda birgina ifodalanuvchi (ya’ni, bir-biriga omonim) va bir necha ifodalanuvchiga mos keladigan birgina ma’no (bir-biriga sinonim) sifatida taqdim etadi.

Uchinchi bobning «**Kombinator lug‘atlarning yaratilish tamoyillari**» deb nomlangan ikkinchi bo‘limida kombinator lug‘at an’anaviy lug‘at tamoyillariga tayanganligi sababli ensiklopedik lug‘at ma’lumotlari ham ko‘zga tashlanadi²². Izohli-kombinator lug‘at – to‘liq nazariy ma’lumotlarni qamrab oladigan lug‘atdir. Lug‘at tilshunoslar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, leksikografiya va nazariy tilshunoslik o‘rtasidagi bo‘shliqni to‘ldiradi. Bu leksikografiya bo‘yicha kichik ilmiy ish sifatida nazariy fikrlarni birlashtirgan leksikografik tadqiqotlar to‘plami deb hisoblash mumkin. Bobda izohli kombinator lug‘at va boshqa faol lug‘atlar orasida muhim farqlari sanab o‘tilgan.

Lug‘atda bosh so‘zning har qanday ma’nosi emas, balki uning hozirgi umumiste’molda bo‘lgan, ko‘pchilikka tushunarli bo‘lgan ma’nosi (ma’nolari) qayd etiladi. Bosh so‘z bir ma’noli bo‘lsa, lug‘at maqolasi shu ma’nosiga tuziladi. Ko‘p ma’noli bo‘lsa, har bir ma’nosi, ma’lum tartibda, to‘q qora rangli arab raqami bilan alohida-alohida qayd etiladi (Raqamdan keyin nuqta qo‘yilmaydi) va so‘z ma’nolarining boshqa so‘z bilan kombinatsiya hosil qilishi (X, Y, Z... harflar bilan) beriladi. **X** so‘z qanday? qanaqa? qay holda? qancha? nechta? qachon? qaerdagi? so‘roqlariga javob bo‘ladi va boshqa so‘zlar bilan kombinatsiya hosil qiladi. **Y** so‘z kimning? nimaning? qaerning? so‘roqlariga javob bo‘ladi va boshqa so‘zlar bilan kombinatsiya hosil qiladi. **Z** so‘z kim (-ni, -ga, -da, -dan, bilan, uchun, haqida...)? nima (-ni, -ga, -da, -dan, bilan, uchun, haqida, qil, bo‘l...)? qaer (-ni, -ga, -da, -dan)? so‘roqlariga javob bo‘ladi va boshqa so‘zlar bilan kombinatsiya hosil qiladi.

Masalan: **BALAND [f. yuqori] (chas.25)**

Sin.qiyos: baland, yuqori

S₆ (baland) = Sin₁ (yuqori) [ilm.us].

Ant₁ (baland) – (past) [usb.b].

1/2/3/5=x qanday?	4=x qayerga?
1.1. Kfsq[V ₂ (y+n ₂)+V ₁ (Zu)]→N[k ₁]	4. Adj[d ₁] → N[k ₂]

(Словарные статьи Скорость, коробка скоростей. Материалы к тольково-комбинаторному словарю русского языка. – Публ. Проблемной группы по экспериментальной и прикладной лингвистике. Вып. 38. – Москва: ИРЯ АНССР, 1971. с.3-18.); А.К.Жолковский, Е.Э.Разлогова (Шесть словарных статей на русском и французском материале. Сбор. несколько словарных статей тольково-комбинаторного словаря. Серия предварительные публикации института русского языка АНССР. 23-том. – Москва, 1971. – С. 17-46); А.К.Жолковский, Е.Э.Разлогова (19 словарных статей тольково-комбинаторный словарь современного русского языка. Института русского языка АНССР. Проблемной группы по экспериментальной и прикладной лингвистике. Вып. 26. – Москва:ИРЯ АНССР, 1972. 56 с.); И.А.Мельчук, А.К.Жолковский, Ю.Д.Апресян (Тольково-комбинаторный словарь современного русского языка. Опыты семантико-синтаксического описания русской лексики. Wien, 1984, 992 с.); И.А.Мельчук (I.A.Mel'čuk et al. Dictionnaire explicatif et combinatoire du français contemporain. Recherches lexico-sémantiques IV. — Montréal: Les Presses de l’Université de Montréal, 1999. — ISBN 2-7606-1738-6.) кабилар.

²² Мельчук И.А., Жолковский А.К. Ўша асар.- Б. 74.

1.2. Adj[d ₁] → N[l ₁] 2. Adj[d ₁] → N[k ₁] 3.1. P ₁ [l ₁ +k ₆] → Adj[d ₂] 3.2. Adj[d ₁] → N[k ₁] 5.1. P ₅ [eb ₃ +k ₆] → Adj[d ₁] 5.2. Adj[d ₁] → V ₂	
---	--

*1=x Pastdan yuqoriga tomon o‘lchami uzun; qaddi, bo‘yi uzun; novcha (32; 34; 34; 37; 100; 122; 174; 204; 216). *YUsufning esa fikru xayolini dam ko ‘rinib, dam baland tepaliklar ortiga o‘tib qolayotgan Ulug‘tog‘ band etgandi. Bir mahal yo ‘Ining shundoq ikki chetidan boshlanib ketgan **baland** va anchagina tik adirliliklar ustida qo ‘y-qo ‘zilar ko ‘rindi* (32).

*2=x Kuch darajasi belgilangan me’yordan ortiq, kuchli; yuqori (11; 40; 121; 200; 251). *Nihoyat, gangurgungir bo‘lib o‘tirgan davrani **baland** ovoz bilan Muhammadjon aka o‘ziga jalb qildi* (11).

*3=x *ko ‘chma.* Ba’zi belgi, xususiyatlarning ortiq, yuqori darajadaligini ifodalaydi (55; 106; 176; 184; 239). *Adashmasam, bularning darajoti xuddi namozu haj kabi deyiladi kitoblarda. Menimcha, hatto ulardan **balandroq** — birinchi ibodatdir* (55).

*4=x Er sathiga nisbatan yuqorida joylashgan nuqta; tepalik (63). ...boyadan beri payt poylayopgan Rashidning qo ‘liga tushdi – bu bahaybat hayvонни bo‘yin terisidan mahkam tutgancha mushuk singari **balandga** ko ‘tarildi (63).

*5=x *ko ‘chma.* Qadr-qimmatli, e’zozli, yuqori (194). *Zamona zaylining hukmron va allalovchi domidan o‘zini qutqarib, bularning barchasidan **baland** ko ‘tarilib yashaydigan va bashariyatning ulug‘ orzulari sari kurashadigan Zotlinning shakllanishi naqadar qiyin ekan, — xayolidan kechardi YUsufning (194).*

Izohli-kombinator lug‘atlar quyidagi maqsadlarda foydalilaniladi:

1. Kompyuter dasturlarini yaratish va kompyuter lingvistikasida tabiiy til matnlarini qayta ishslash, sintez va analiz qilish maqsadida zurur axborotlar bilan ta’minlash uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

2. Tabiiy tilning nazariyasi, metatilning semantikasini rivojlantirish, so‘zning semantik va sintaktik xususiyatlari, frazeologiyaning tavsiflash kabi masalalarga oydinlik kiritadi.

3. Tillarni o‘qitish, nutq madaniyati, leksikografiya sohalarining ravnaqida ko‘mak beradi. O‘quv lug‘atlari, tezaurus va darsliklar yaratilishida manba vazifasini bajaradi.

Uchinchi bobning «**Anagramma – til hodisasi**» bo‘limida anagramma nima? degan savolga batafsil ma’lumot berilgan. Anagrammalar so‘zdagi harflarning kombinatsiyasi orqali yangi so‘z yasash yoki berilgan harflardan so‘z yasashini inobatga olib ikki turga bo‘linadi: *so‘zli anagramma va harfli anagramma*.

So‘zli anagramma – mavjud so‘zdan harflarni olib tashlamasdan va qo‘shmasdan harflarning kombinatsiyasi asosida yangi so‘z hosil qilish usuli. Bosh

so‘z ham hosila so‘z ham o‘zbek adabiy tili lug‘atida bo‘lishi lozim. Masalan, bahor – ahbor.

Harqli anagramma – betartib berilgan harflarni kombinatsiyalash orqali so‘z hosil qilish usuli. Masalan, natav - vatan.

Tadqiqot natijalari asosida anagramma dasturi (sayt: <http://anagramma.uz>) yaratildi. O‘zbek tili elektron anagramma dasturining funksiyalari quyidagilarndan iborat.

1. Bosh sahifa
2. Izlash maydoni
3. Analizator
4. Foydalanuvchilar yo‘riqnomasi

Anagrammalar matnda yuqori chastotali bo‘lmasa-da, u matnning butun «maydon»ini egallaydi va anagramma hosil qilingan so‘z tovush-harf tarkibini bir necha bor takrorlaydi. Yoki anagramma hosil qilinishi lozim bo‘lgan mazmun matnning biror so‘zida jamlanadi (masalan, *saodat* so‘zida – *ado*, *sado*, *odat*, *soat*, *ot*, *sot* kabi so‘zlar yashirin). Anagrammalar formal (ko‘pincha diqqat shu jihatga qaratiladi) va semantik (sarlavhadagi mazmun bilan bog‘lanadi) jihatdan hosil qilinadi. Bundan tashqari, matndagi boshqa vosita va belgililar anagramma qilinadigan so‘z bilan chambarchas aloqada bo‘ladi, shu so‘zga ishora qiladi.

Anagrammalar matn tarkibidagi taqsimlanish qat’iy qonuniyatga bo‘ysunadi yoki matn uchun eng muhim bo‘lgan g‘oya, mazmunning mohiyatini ochish uchun matnning biror qismidagi elementga diqqat qaratiladi. Anagrommalar ko‘z oldimizda, avvalo, ona tilimizning keng jabhadagi semantik-uslubiy rang-barangligini matn orqali namoyish qila oladigan imkoniyat sifatida namoyon bo‘ladi. Buni birinchi navbatda, matnda ko‘pchilik so‘zlarning ko‘chma ma’nolarda qo‘llanilib, ularning semantik ma’nosida kengayish ro‘y bera borishida kuzatamiz. Ya’ni, biror matn tili shu vosita yordamida umumxalq tilining eng nozik jihatlarini ham yuzaga chiqara oladigan maydonga aylanishi mumkin. So‘zlar, umuman til birliklari bunda g‘ayriodatiy qurilishlarda qo‘llanilib, masalan, ma’nolar bir-biriga zid, yoki aksincha, ma’nolari bir-biriga yaqin, takror ifodalar ishlatilib, favqulodda original tasvirlar va obrazlar yaratiladi. Nutqda anagarammalarning qo‘llanishi, umuman, badiiyatdan, qolaversa, shoir yoki yozuvchining ijodiy mahoratidan kelib chiqadigan zarurat mahsulidir. Shu sababli ham badiiy tasvir vosita sifatida til birliklarini badiiy-estetik maqsadga xizmat qildirishga bo‘ysundirishi, shu yo‘lda ayrimlarining uslublarga xoslanishi va uslubdagi o‘rnini yana ham mustahkamlashi mumkin. Anagrommalar faqat muhim tasviri vositagina bo‘lib qolmasdan, balki badiiy tafakkur elementi, estetik hodisa hamdir. Badiiy matndagi anagrommalar individual va milliy xarakterga ega. Boshqa uslublarda ularning an’anaviy shakllari ishlatilsa, badiiy matn anagrammalari uchun originallik xos va shuning uchun ham u badiiy uslubning alohida alomatlari sanaladi.

XULOSA

1. Dunyoda kechayotgan barcha jarayonlarni axborotni to‘plash, uzatish, saqlash va qayta ishlash tizimi orqali qulay va tezkor bajarish mumkin. Bu

jarayonni boshqarishda inson imkoniyatlari (xotira, tezlik) chegaralangan. SHu nuqtai nazardan, o'zbek kompyuter tilshunosligining takomillashtirish tilshunos olimlar oldida turgan dolzarb masala. Bu o'zbek tilini kompyuter tiliga aylantirish, ya'ni til va nutq bilan bog'liq masalalar - o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitish, bilimlarni elektron baholash, o'zbekcha matnlarni ovozlashtirish, axborotni ovoz orqali kompyuterga kiritish, matnlarni tahrirlash, tarjima qilishni kompyuterda bajarish imkonini yaratadi. Bunday dasturlarning yaratilishida kombinator tilshunoslik muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Kombinator tilshunoslik – o'zbek tilshunosligining alohida sohasi bo'lib, til belgilar tizimi sifatida turli til birliklarining o'rtasidagi munosabatni aniq va mukammal o'rganadi. Kombinator tilshunoslik o'zining o'rganish predmetiga ko'ra mustaqil yo'naliш sifatida til birliklarining muvofiqligini keng ko'lamli muammolarini qamrab oladi. Shu nuqtai nazardan ma'lum bir metatilning mavjudligi muammoси paydo bo'ladi va uning yordamida tavsiflash imkoniyati yuzaga keladi. Tadqiqot natijasi shuni ko'rsatdiki, XX asrda ko'plab muvofiqliк tushunchalari yuzaga kelib ular o'zaro sinonim sifatida qo'llanilib kelmoqda. Mazkur tushunchalarni terminologik tizimda bir me'yorga keltirish va muqobil variantini tanlash kombinator tilshunoslikning rivojiga bog'liqdir.

3. Kombinator tilshunoslikning terminologik bazasini shakllantirish fanning asosiy bo'limlariga kiritilgan bir necha sathlarni o'z ichiga olgan terminologik tizimini qurishdan iborat. Tizim atamasi sintagmatika konsepsiyasiga asoslangan bo'lib, u muloqotning asosiy tamoyillaridan biri - nutqning chiziqlilik tamoyilini o'z ichiga oladi. Barcha tillarda til belgilarining mos kelishining nutq jihatni shu tamoyilga asoslanadi. Terminologik sohaning yadrosini til birliklarining mosligini aks ettiruvchi atamalarni o'z ichiga oladi (sintagmatika, moslik, valentlik, kontekst, pozitsiya va boshqalar), periferiyada esa bu soha bilan bilvosita bog'liq bo'lgan so'z mosligining xususiyatlari va vazifalarini tavsiflaydigan atamalar joylashadi va ular ham muhim rol o'ynaydi.

4. Kombinator tilshunoslik o'rganayotgan ob'ekt va predmetlarning ahamiyati va global xarakteriga asoslanib, o'z ichiga kompleks nazariy (kombinator fonetika, kombinator leksikologiya, kombinator semasiologiya va hokazo) va amaliy (kombinator leksikografiya, kombinator lingvodidaktika, nutq madaniyati kabi) bo'limlarini o'z ichiga oladi, shuningdek, o'z ilmiy muammolari, maqsadi, terminologik bazasi, ilmiy nazariyasiga egadir.

5. Kombinator fonetika – fonetik to'plam elementlarini (tovush, bo'g'in, intonatsiya) berilgan modellar doirasida va berilgan qoidalarga muvofiq tanlash va joylashtirish sohasi. Har bir bunday qoida kombinatsion konfiguratsiya deb ataladigan dastlabki to'plam elementlaridan boshqa konfiguratsiyani qurish usulini belgilaydi. Har bir fonetik kombinatsion model – kombinatsiya o'zgarishlarning ma'lum qoidalari ishlaydigan funksional makonda hosil bo'ladi.

6. Kombinator leksikologiya – leksik birliklarning muvofiqligini optimal talqin qilish lug'atlarda amalga oshiriladi. Ikki tillilik lug'atlarning ishlab chiqilishi til sathlarining kombinator xususiyatlarini o'rganish orqali amalga oshiriladi.

7. Kombinator frazeologiya – frazeologiyazmlarning shakllanishi masalalari, komponentlarning bog'lashuvi, tildagi vosita va usullar asosida shakllanishida

kombinator xususiyatlarini o‘rganadi. Frazeologiyalarning shakllanishi integratsiya va differensiatsiya, ya’ni so‘zlarning o‘ziga xos kombinatsiyalari asosida yuzaga keladi.

8. Kombinator leksikografiya – kombinator tilshunoslikning alohida nazariyamaliy sohasi bo‘lib, so‘zlarning muvofiqligi, so‘z kombinatsiyalari va ularni izohlash, kombinator lug‘atlar tamoyillarini ishlab chiqish kabi muammolarni o‘rganadi. Kombinator lug‘atlar 9 xususiyatiga ko‘ra yaratiladi: 1) lug‘atning maqsadi va vazifasi; 2) muvofiqlikni tasvirlanishining ahamiyati; 3) muvofiqlik tipining tasvirlanishi; 4) muvofiqlikni tavsiflash prinsipi; 5) funksional yo‘nalganlik; 6) muvofiqlikni tavsiflash xarakteri; 7) so‘zlarni joylashish xarakteri; 8) so‘z ma’nosini taqdim etish usullari; 9) so‘z muvofiqligini tavsiflash usullari. Kombinator lug‘atlarning tizimli tavsifi an’anaviy leksikografiya tamoyillariga asoslanadi va tilshunoslikning turli nazariy hamda amaliy masalalarini echishda yordam beradi.

9. Lingvistik anagrammalar dasturi (<http://anagramma.uz>) kompyuter lingivtsikasi yo‘nalishi uchun (mashina tarjimasi, nutq sintezatori, sentiment analiz, matn tahriri, lingvovidaktika kabi) obyekt vazifasini bajaradi.

E’LON QILINGAN ISHLAR RO‘YXATI

I bo‘lim (I chast; I part)

1. Yunusova B. Erkarendes kombinatorisches vokabular ist ein integrierter bestandteil jeder sprache // Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities: ISSN 2749-0866, Volume 1. Issue 1.6. – Berlin, 2022. – P. 250-261.

2. Юнусова Б. Тилшуносликда тил бирликлари ва уларнинг комбинацияларини ўрганувчи соҳа // СамДУ илмий тадқиқотлар ахборотномаси. – Самарқанд, 2020. - № 2 (120). – Б. 41-44. [10.00.00; № 06].

3. Юнусова Б. Комбинатор тилшунослик тушунчаларининг базавий тизими // Ilim hám jámiyet. Ilmiy-uslubiy jurnal. – Nəkis, 2021. - № 3. – В. 77-80 [10.00.00; № 02].

4. Юнусова Б. Комбинатор тилшуносликнинг шакланишида структурализмнинг ўрни // Ал-Хоразмий номли Урганч давлат университетининг «Илм сарчашмалари» илмий-назарий, методик журнали. – Урганч, 2022. -№4. –Б. 171-174. [10.00.00; № 3].

5. Yunusova B. Sintagmatika kombinator tilshunoslikning asosi // Namangan davlat universitetining “NamDU ilmiy-axborotnomasi” jurnalı. Namangan, 2022. - № 4. – B. 77-80 [10.00.00; № 07].

6. Yunusova B. Kombinator leksikografiya – tilshunoslikning nazariy va amaliy asosi // FarDU axborotnomasi. – Farg‘ona, 2022, № 4.– B. 171 -174. [10.00.00; №10].

7. Yunusova B. Combinatory properties of syntagmatic combination of phraseological units // Proceedings of International Multidisciplinary Scientific-Remote Online Conference on Innovative Solutions and Advanced Experiments

Madisonwrights Organised by Samarkand Regional Center for Retraining and Advanced Training of Public Education Staff Samarkand, Uzbekistan ISSN: 2581-4230 In Association with Novateur Publication India's A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal journalnx.com, , June 18th & 19th. – Samarkand, 2020. – P. 57-61.

8. Yunusova B. Cognitive aspects in combinatorial linguistics // “Cognitive research in education” internatsional scientific-practical conference on the subject information letter. SamVXTXQAMOHM. 15th April 2021. – Samarqand, 2021. – P. 435-437.

9. Yunusova B. Syntagmatics are the main factor which makes communicative functions // In a multidisciplinary International conference on developments in education, published with e-conference zone international database, hosted online from Toronto, Canada on june 15th, 2022. – P. 131-133.

10. Yunusova B. Theoretical and methodological foundations of combinatorial linguistics European journal of science archives conferences series // Konferenzreihe der europäischen Zeitschrift für Wissenschaftsarchive . – Germany, 2022. – P. 65-68.

II bo‘lim (II chast; II part)

12. Yunusova B. Kominator ligvistikka “sun‘iy intellekt” tadqiqot yo‘nalishining bir qismi // Ta’limda filologiyani rivojlantirishning global masalalari. Xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Jizzax, 2021.– B. 100-102.

13. Yunusova B. Kombinator leksikografiya – tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishi // Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollar. Respublika ilmiy-texnikaviy konferensiya to‘plami, Toshkent, 2022. – B. 140-143.

